

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурод Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbosxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Soatova Nodira Isomitdinovna

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI258-265

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA266-269

Yusupova Omina Muhammadzoir kizi

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE270-276

Бозорова Хулкар Одинакуловна

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ277-282

Matyakubov Oybek Quralbayevich

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI283-288

Фатуллаева Камола Рахматуллаевна

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ289-293

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI294-299

Xamzayev Otaxon Erkinovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ306-310

Сафоева Садокат Мусоевна

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА311-320

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Zoirova Lola Xamidovna

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

13.00.00- Педагогика фанлари

Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta
o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD)
axmadaliyeva@gmail.com

**PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING
INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR
ORQALI TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional ta'lim yo'nalishlaridagi o'quvchilarning ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda autentik materiallarning muhimligi va samaraliligi yoritilgan. Shuningdek, autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat dars jarayonida turli xil hayotiy vaziyatlarda tildan unumli foydalanib, muvaffaqiyatli muloqot qilishlariga, balki, darsdan tashqarida ham oila a'zolari, do'stlari, yaqinlari bilan ham erkin muloqotni amalga oshirishlari orqali tilni o'rganishga bo'lgan motivatsiyalarining kuchayishi ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar va tushunchalar: ingliz tili darslari, kommunikativ kompetensiya, eklektik rivojlantirish, autentik materiallar, erkin muloqot, real hayotiy vaziyatlar, professional ta'lim, muhokama, rolli o'yinlar.

Akhmadaliyeva Xosiyatposhsho Abdukhayotovna,
PhD, Senior teacher, Uzbekistan State World Languages University

**IMPROVING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE THROUGH AUTHENTIC
MATERIALS IN ENGLISH CLASSES AT PROFESSIONAL EDUCATION**

Abstract. This article illustrates the importance and effectiveness of authentic materials improving the communicative competence of students in professional education in English classes. Also, the use of authentic materials helps students not only to effectively use the language in various life situations during lessons, but also learning the language through free communication with family members, friends, and relatives outside of the classes that leads to increase motivation of students.

Key words and concepts: English lessons, communicative competence, eclectic development, authentic materials, free communication, real-life situations, professional education, discussion, role-plays.

Ахмадалиева Хосиятпошшо Абдухайотовна,
PhD, старший преподаватель кафедры теоретических
аспектов английского языка №1 Узбекского
государственного университета мировых языков

**ПОВЫШЕНИЕ АНГЛИЙСКОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ,
ОБУЧАЮЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, ПОСРЕДСТВОМ
АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ**

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность и эффективность аутентичных материалов в совершенствовании коммуникативной компетентности студентов профессионального образования на уроках английского языка. Также использование аутентичных материалов помогает учащимся не только эффективно использовать язык в различных жизненных ситуациях в ходе урока, но и осваивать язык посредством свободного общения с членами семьи, друзьями, родственниками вне урока учитывалось повышение мотивации студентов.

Ключевые слова и понятия: уроки английского языка, коммуникативная компетентность, эклектичное развитие, аутентичные материалы, свободное общение, жизненные ситуации, профессиональное обучение, обсуждение, ролевые игры.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N66>

Kirish. Mamlakatimizda o'quvchilarning chet tillarni mukammal o'rganishlari, barcha sohalarda chet tilini bilgan holda o'zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tilda og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish muammolari ilgari surilmoqda. Ta'lim oluvchilarning chet tilida fikr yuritish, erkin nutqni amalga oshira olish qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual faoliyatini amalga oshirish, ularning tayyorgarligini baholash borasida YUNESKO, YUNISEF, Yevropa Universitetlari Assotsiyatsiyasi, Oliy Ta'lim Sifatini Ta'minlash Yevropa Tarmog'i kabi tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimizning tashqi siyosatidagi o'zgarishlari xalqaro aloqalarning kengayishiga xizmat qildi, natijada, yuksak bilimga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Mamlakatimizda til savodxonligi oshirilishining yetakchi yo'nalishlarini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topdi [1]. Shuningdek, jamiyatimizda turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri, ularning muloqoti va o'zaro boyishi uchun nutqiy faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalaning umumiy tendensiyalarida yosh avlodda chet tiliga, xususan ingliz tiliga oid malakalarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunga kelib ta'lim oluvchilarning nafaqat chuqur bilimga ega bo'lishlari, balki ko'nikma malakalarini puxta egallash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishlari davr talabiga aylandi. Professional ta'lim, ayniqsa akademik litsey bitiruvchilarini, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash bosqichida dasturni isloh qilishda Yevropa Kengashining "Chet tillarni egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR- Common European Framework of Reference) ni tadbiq etish bilan birga O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'rganishga qo'yiladigan talablar, o'zlashtirish darajasini baholash qoidalari ishlab chiqildi [1]. Unda chet tilini o'qitishga ixtisoslashmagan ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari professional ta'limdagi o'qitish faoliyatida ta'lim nihoyasida B1 darajani o'zlashtirishlari talab qilib qo'yilar ekan, malaka talablarida tilga ixtisoslashmagan ta'lim muassasasi o'quvchilarining kasbiy tayyorgarliklari bilim, malaka va ko'nikmalariga beriladigan talablar ham o'zgardi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonining qabul qilinishi, uzluksiz ta'limning har bir bosqichini isloh qilish, yoshlarning tahsil olishi uchun barcha zamonaviy imkoniyatlarni yaratish, xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini tashkil qilish, yangicha yondashuvlar, chet el andozalari asosida darslarni samarali tashkil etish orqali yosh avlodni yetuk mutaxassis qilib o'stirish jamiyatimizning asosiy poydevori ekanligi ta'kidlab o'tildi [2]. Natijada, o'quvchilarning xorijiy tilda tafakkur qilish, fikr yuritish, erkin nutqni so'zlay olish

qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual salohiyatini shakllantirish, ularning tayyorgarligini baholash kabi masalalar ilgari surildi. Bu masalalar o'quvchilarning nafaqat ijodiy balki nutqiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Yana bir narsani ta'kidlab o'tish zarurki, professional ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayonida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning iqtidorlarini yanada takomillashtirish masalasi ko'rib chiqildi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 3-dekabr kuni qabul qilingan "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qaror o'sib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirishni maqsad qilib qo'ydi [3]. Qarorda professional ta'limda ingliz tilidan kompetentli yoshlarni tayyorlash uchun o'qitishni tashkil qilishning shakl va usullariga 4 ta talablar qo'yildi:

O'qitishni tashkil qilishning shakl va usullari ta'lim mazmunini o'quvchi tomonidan o'zlashtirib olishga, barkamol avlodni tarbiyalash, milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish vazifalariga yordam berish.

O'quvchi tomonidan fan asoslarini puxta o'zlashtirishning ongli ravishda o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlari uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga yordam berish.

O'qitishni tashkil qilishning shakl va usullari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, o'quv fanlarining o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olib tanlanishi va xilma xil bo'lishi.

O'qitishni tashkil qilishning shakl va usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini oshirishi, ularda ilmiy dunyoqarash, iymon-e'tiqod, ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.

Qo'yilgan talablar asosida, xorij andozalarini tahlil qilgan holda, yurtimizda xorijiy tilni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni ta'limning har bir bosqichiga, ayniqsa, professional ta'limda joriy etish maqsad qilib qo'yildi, chunki ingliz tilining to'rtta aspektini muvaffaqiyatli o'rganishda kommunikativ kompetensiyani o'rni beqiyosdir, kommunikativ kompetensiyasining mavjud bo'lishi o'quvchining biror bir ma'lumotni yetkazish samaradorligi, boy lug'at zaxirasi, nutq madaniyati, til vositalarini o'z o'rnida to'g'ri tanlanganligini belgilashi, shuningdek boshqa insonlar bilan muloqot jarayonida o'z shaxsiy ma'naviy-axloqiy holatini tartibga solishni boshqarish mahoratini belgilaydi, biroq professional ta'lim yo'nalishlarida ingliz tili darslari innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali xalqaro standartlarga mos tarzda o'qitilishi va o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi to'liq o'rganilmaganligi aniqlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'quvchilar ingliz tilini amalda erkin muloqot orqali tez va puxta egallay olishlari uchun imkoniyat yaratib beradigan darslarni tashkillashtirish va shu orqali ularning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish zarur. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining rivojlanishi turli xil vaziyatlarda ham ular vaziyatga mos nima? ni, qanday qilib? va qachon? gapirish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda ingliz tilida fikr-mulohazalarni ravon, yaxlit va mantiqan izchil bayon qilish mahorati bo'lib, bunda muloqot tilining ifodali hamda aniq muloqot bo'yicha sheriklarning faolligining har qanday turini tushunish va mos ravishda javob qaytarish layoqatini shakllantirishda namoyon bo'ladi [4; 23-bet]. Natijada, o'quvchilar chet tilida asosan, ingliz tilida muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshirishlari uchun lingvistik va nutqiy kompetensiyaning komponentlarini eklektik tarzda egallab borishlari uchun zamonaviy gadgetlarning mavjud bo'lishi, ularning ingliz tilini faqat dars jarayonida emas, darsdan tashqarida ham turli xil manbalar yordamida

o'rganishlari uchun sharoitlar yaratadi. Manbalar ichida autentik materiallar o'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini hamda real hayotiy vaziyatlar asosida ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Autentik materiallar yordamida yaxshi ingliz muhitini yaratish va u orqali o'quvchilarni mustaqil tarzda ishlashga undash, yaxshi natijalarga erishish va o'quvchilar nafaqat darslarda do'stlari bilan muloqot qilishlariga balki, darsdan tashqarida ham oila a'zolari, yaqinlari bilan ham muloqot qilishiga zamin yaratadi. Bu materiallar o'quvchilarning ehtiyoji, qiziqishi va bilim darajasiga qarab tanlanadi. Natijada, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi kuchayadi. Motivatsiya oshgan sari ularning darsdagi qatnashishlari ham shubhasiz, jadallashib boradi. Bir qancha olimlar autentik materiallardan foydalanib o'quvchilarning muloqotini samarali rivojlantirish bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotchi olim Huang autentik materiallar ingliz tili darslarida o'rgangan til bilan hayotda foydalanadigan til o'rtasidagi farqlarni kamaytirish uchun ishlatilishini ta'kidlaydi. Boshqa bir izlanuvchi olim Berns & Ericksonning aytishicha, bu materiallar tilni o'qitish maqsadida emas, xuddi inglizlar kabi kundalik hayotda uni qanday qo'llashni o'rgatish uchun ishlatiladi. Autentik materiallar o'quvchilarning hayotiga taalluqliligi uchun ular berilgan topshiriqlarni diqqat bilan bajaradi, turli xil vaziyatlarda tilni egallayotganligi kundalik hayotda undan qiyinchiliksiz foydalanishiga olib keladi [5; 1-10 betlar].

Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan autentik materiallar quyidagicha tasniflanadi:

1. **Tinglab tushunish materiallari:** radio eshittirishlar, qo'shiqlar, audiolar, podkastlar;

2. **Vizual materiallari:** teleko'rsatuvlar, televizion dasturlar, televizion reklamalar, kinolar, multfilmlar, tasvirlar;

3. **Bosma materiallar:** jurnallar, gazetalar, plakatlar, xaritalar, broshyuralar, varaqalar, risolalar, reklamalar, hikoya kitoblari, taklifnomalar, menyular, markalar, avtobus yoki poyezd jadvallari, retseptlar, biletlar;

4. **Realia yoki haqiqiy buyumlar:** qog'irchoqlar, uyali aloqa vositalari, valyutalar [6; 225-234 betlar].

Hamma turdagi keltirilgan autentik materiallar o'quvchilarning maqsadlari, ehtiyojlari va samarali muloqot qilish tabiatini o'zida mujassamlashtirgan. Bular o'quvchilarning real hayotda ingliz tilida olib borayotgan suhbatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning ilhomlanishi va yutuqlarga erishishi o'qituvchiga ham bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarning tilni o'rganishlari uchun mos materiallar tanlab, darsda foydalanishga mas'ul shaxsdir. Darslarda o'qituvchilar uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi, chunki o'quvchilar muloqot paytida xato qilishdan qo'rqib, nutqlari aniq va ravon emasligidan o'zlariga ishonmaydilar. Bunday holatda autentik materiallar haqiqatdan ham o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga imkon beradi [7; 7-bet]. Hayotiy voqealarga asoslangan turli xil topshiriqlarni misol uchun: rolli o'yinlar, intervyu, hikoya so'zlab berish, muhokamani amalga oshirishda o'quvchilar juft yoki guruh bo'lib ishlab, hatto, uyalgan o'quvchilar ham faol qatnashishga harakat qiladi.

Hozirgi kunda ingliz tili darslarida autentik materiallar asosida tuzilgan topshiriqlar ichida o'quvchilarning muloqotini rivojlantirish uchun eng foydali topshiriqlardan biri **muhokama (discussion)** hisoblanadi, chunki bunda til ko'p amaliyot qilish orqali ilmiy va

ilmiy bo'lmagan kontekstlarda o'rganiladi. O'quvchilar turli xil mavzularda o'zlarining fikrlari, qiziqishlari, tajribalaridan kelib chiqib muhokamada qatnashadi. Muhokamaning birinchi bosqichi hisobot berish bosqichi bo'lib, unda o'quvchilar fikrlarini to'liq bayon qilishi kerak va bu jarayonida o'quvchilar qanday qilib nutqni boshlash, suhbatdoshiga navbat berish, o'z fikrlarini yetkazib berish, mavzuning har tomonlama sharhlashni o'rganadi. Bundan tashqari, munozarada tinglangan yangi ma'lumotlar va g'oyalar o'quvchilarning dunyoqarashini o'stiradi. Muvaffaqiyatli munozara olib borish uchun kamida 2 ta talab qo'yiladi: 1) qatnashuvchilarning faol qatnashishi, imkon qadar o'quvchilarning ko'proq so'zlashi; 2) yuqori darajadagi motivatsiya. Bular muhokama olib borish uchun eng birlamchi talablar bo'lib, bulardan tashqari, muhokamaga mavzu berilgandan so'ng o'quvchilarga tayyorlanishga vaqt berilishi, mavzu haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishlari uchun ma'lumotlar, rasm yoki tasvirlar o'qituvchi tomonidan taqdim etilishi kerak. Masalan: Muhokama uchun "Nima uchun hayvonlar xavf ostida" (Why are Animals in Danger) mavzusi tashlanadi. Muhokamani boshlashdan oldin o'quvchilarga gazetadan bir maqola beriladi. O'quvchilar bu autentik matnни o'qib ma'lumot oladi. Keyin mavzuga doir qisqa daqiqali video lavhani ko'rib uni matn mazmuni bilan solishtiradi. Bu orqali o'quvchilar ma'lumotlar bilan qurollanib muhokamaning asosiy ya'ni hisobot bosqichiga tayyorlanadi. Natijada, tayyorlangan o'quvchilarning muhokamasi mazmunli, aniq va ma'lumotga boy bo'lib, o'quvchilarning muloqotini tushunarli va mantiqiy bo'lishiga erishiladi. Darslarda muhokamalardan foydalanishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'quvchilarni tayyorlamoq. O'quvchilarga mavzuga va til shakllariga oid ma'lumotlar berib, ular nima? ni va qanday? gapirishga tayyorlanadi;
- tanlovlarni taklif qilmoq. Bir qancha mavzular berib, o'quvchilarni tanlashiga izn beriladi. Ular uchun qiyin bo'lgan mavzularni tanlamaslik kerak, chunki lingvistik kompetensiyaga ega bo'lmagan o'quvchilar qatnasha olmasligi mumkin;
- maqsad va natija qo'ymoq. Bu guruh yoki yakka tartibdagi ish ekanligini va o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlanishiga qay tarzda? yordam berishini belgilab beradi;
- butun sinf muhokamasini tashkillashtirishdan ko'ra kichik guruhlarda munozara olib bormoq. Katta guruhlarda hamma o'quvchilarning qatnashishi murakkabdir, shuning uchun kichik guruhlar hamma o'quvchilarni band qilishga imkon beradi;
- vaqt belgilamoq. Har bir qatnashuvchi uchun aniq vaqt belgilab, agar u mavzudan chiqib gapirsa berilgan vaqt tugashiga qadar uni to'xtatib, boshqasiga navbat beriladi;
- o'quvchilarni o'z xohishiga qarab qatnashishga imkon bermoq. Har bir qatnashuvchini erkin his qilishi uchun qulayliklar yaratiladi;
- lingvistik bosqichni amalga oshirmoq. Muhokama tugagandan keyin, o'qituvchi har bir o'quvchining grammatik, talaffuz, leksik xatolari haqida fikr-mulohaza bildiradi (feedback) va maslahatlar beradi.

O'quvchilarning darslarda ko'p muhokamalarni qilishi orqali ularning nutqlarini ravnolashishiga va o'z fikrlarini guruh ichida tortinmay ifoda etishiga, ko'p ma'lumotlar yordamida dunyoqarashlarining o'sishiga erishiladi.

Turli xil vaziyatlarda samarali muloqotni rivojlantirishda **rolli o'yinlar (role-plays)** ning o'rni beqiyosdir. O'quvchilar xuddi haqiqiy vaziyatda bo'lgandek harakatlanadilar [8; 190 bet]. O'quvchilarga odatda rollari haqida ya'ni kim ular? va ular nima? ni o'ynashi haqida

kartochkalar beriladi. Ular o'zlari xohlagandek erkin rol ijro etishi mumkin. Rolli o'yinlarni ijro etish 3 bosqichdan iborat bo'lib 1-bosqichida o'quvchilarga zarur ma'lumotlar beriladi, 2-bosqichida ular rol ijro etadi, 3-bosqichida muhokama bo'ladi. Misol uchun: "Do'stingizni kechki ovqatga taklif qiling" (Invite a Friend to Dinner) mavzusi ostida rolli o'yin senariysi taqdim etiladi: Juftlikda 10 nafargacha o'quvchilardan iborat guruhlar uchun.

Rollar: Mike/Sally Crocker and Chris/Pam Overton, Claire Dennis and Peter North, Neil/Diana Brown and Paul/Sara Evans va hokazo.

1. Bu sahna asarida o'quvchilar juft-juft bo'lib ishlaydi. Bir o'quvchi boshqasiga qo'ng'iroq qiladi va uni kechki ovqatga, ziyofatga taklif qiladi. Tinglayotgan o'quvchi kundaligiga qarab taklif qilingan vaqt uning bo'sh vaqtiga to'g'ri kelishini tekshirib ko'radi. Har bir o'quvchiga roli haqida kartochka beriladi. Ular shu tariqa rol o'ynashga tayyorlanadi.

2. Juftlik tayyor bo'lgach, ular qarama-qarshi o'tirib rol ijro etadi. Mavzuga doir suhbatlaridan tashqari boshqa qiziqtirgan narsalari haqida ham so'rashi mumkin. (Yo'riqnoma bilan birga o'quvchilarga kerakli iboralar ham taqdim etiladi). Rol kartochkalarida namunalari taqdim etiladi. Rolli o'yinlar o'quvchilardan rollariga mos tildan foydalanishni, o'z hissiyotlarini ifoda etishni va suhbatdoshiga nisbatan xushmuomala bo'lishni talab qiladi. Rolli o'yinlar o'quvchilarning sinfdan tashqarida duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda harakatlanishini taqozo etadi. Rollar til funksiyalardan keng foydalangan holda taqlid qilish orqali ijro etiladi. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining hamma komponentlarini eklektik tarzda rivojlantirishda rolli o'yinlarning hissasi kattadir. Bunday topshiriqlar o'quvchilarga zavq bag'ishlaydi. O'quvchilar rolli o'yinlarni ijro etishlari uchun quyidagilarga rioya qiladi:

- diqqat bilan tayyorlanmoq (vaziyat tasvirlab berilib, topshiriq tanishtiriladi va har bir o'quvchining tushunganligiga ishonch hosil qilinadi);
- maqsad va natijani belgilamoq (o'quvchilar nima? ni va qanday? ko'rsatishni aniq biladi va shunga qarab tayyorlanadi);
- kichik guruhlarda tashkil qilmoq (bu o'ziga ishonmagan o'quvchilarga ham rol o'ynab ishonchi oshishiga yordam beradi).
- tayyorlanish uchun vaqt bermoq (yakka tartibda fikrlarini jamlab olib ifoda etishga imkon beriladi);
- o'quvchilar rol ijro etayotgan paytda o'qituvchi ular qilayotgan xatoni to'g'rilamasligi kerak (aks holda ular o'z fikrlarini yo'qotib qo'yishlari mumkin);
- rolli o'yin yakunlanishi (o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kamchiliklari sanab o'tiladi va ularni bartaraf qilish uchun kerakli maslahatlar beriladi).

Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar xijolat bo'lmay, xato qilishdan qo'rqmay muloqot qilishni, sinfda do'stlari bilan darsdan tashqarida oila a'zolari, qarindoshlar va jamiyatlardagi boshqa insonlar bilan osongina muloqotni amalga oshirishni, o'z fikrlarini teran ifodalash uchun tildan qanday foydalanishni o'rganadi.

Autentik materiallar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining hamma komponentlarini rivojlantirishda qo'llanilib, ular ichida o'qish qobiliyatini rivojlantirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Izlanuvchi olim Berardoning fikricha, autentik materiallar o'quvchilarning o'qish qobiliyatini yangi so'z va iboralarni tanishtirish orqali rivojlantiradi [9; 60-69 betlar]. Shuningdek, autentik o'qish materiallarining tili murakkabroq bo'lib, o'quvchilarning chuqurroq bilim olishiga va tilni egallashiga mo'ljallangandir. Boshqa Crossley, McCarthy, Louwense va McNamaralarning ta'kidlashicha, darslarda ishlatiladigan

soddalashtirilgan matnlarning sintaktik tuzilishi autentik o'qish materiallariga qaraganda murakkabroq bo'lib, o'quvchilarga o'qish jarayonida qiyinlik qiladi va ular o'qishni xohlamaydi [10; 15-30 betlar]. Autentik o'qish materiallarida esa ya'ni gazeta, jurnal, broshyuralarda hayotiy voqealar va yangiliklarning berib borilishi o'quvchilarni ruhlantirib o'qishga undaydi. Darslarda ingliz tilida reklama tarzida berilgan haqiqiy ma'lumotlarni autentik materiallarda ya'ni gazeta, jurnal, broshyura, risola va flayerni qo'llab tilni sodda usulda o'rgatishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni qiziqtirish uchun muzeylar, banklar, kutubxonalar, sayohat agentligi haqidagi turli xil ma'lumotlarni autentik manbalardan olib darslarda taqdim etadi yoki o'zlaridan olib kelishni so'raydi, keyin o'quvchilarning xohishlariga qarab, ulardan birini tanlab, bir qancha rolli o'yinlarni, munozaralarni, taqdimot qilishi taklif qiladi. Jumladan, ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilar xorijiy mamlakatlarga ko'p qiziqishlari sababli, o'qituvchilar darslarga turli xil sayohat broshyuralarini olib kelib, o'quvchilardan sayohat manzillari haqida suhbatlashishini yoki aniq bir manzilni tanlab nimaga bu manzilni tanlaganliklari haqida fikrlarini qisqacha yozib, keyin bayon qilishini aytadi. Masalan: Besh kunlik Avstraliyaga sayohat (A five-day trip to Australia) nomli broshyura bir guruhga berilib, berilgan ma'lumotlar asosida besh kun turli xil joylarga tashrif buyurib bu davlatning diqqatga sazovor maskanlari, ovqati, transport tizimi, valyutasi, urf-odatlar va hayot tarzi haqida boshqa guruhlarga gapirib berishini yoki rolli o'yinlar orqali ko'rsatib berishini so'raydi. Bu kabi topshiriqlar yordamida o'quvchilar ingliz tilida so'zlovchi mamlakatlarning madaniyatini ham o'rganishga muvassar bo'ladi. O'quvchilar guruh bo'lib berilgan vaqt davomida tayyorlanib, topshiriqni bajaradi. O'quvchilar ularni tahlil qilib bo'lgach, o'qituvchi ularni tushunganligiga ishonch hosil qilish uchun darsning kirish qismida poll o'tkazishi yoki savol-javob qilishi mumkin. Bu kabi broshyuralar o'quvchilarning til qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, turli xil mavzulardagi podkastlardan darslarda foydalanish o'quvchilarning ingliz tilida so'zlovchi mamlakatlarning shevalarini tushunib, eshitish, muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ular kundalik hayotda keng qo'llaniladigan so'z, iboralarni o'rganadi. Darslarda o'qituvchi podcasting English.com. manzilidan turli xil podkastlarni olib o'quvchilarga eshittiradi va ular asosida topshiriqlar bajariladi, savol-javob qilinadi, muzokaralar olib boriladi, o'quvchilar o'zaro fikr almashib tushunmagan joylarini to'ldiradi. Eshitish orqali o'rganishga qiziqmaydigan o'quvchilar uchun podkastlarni video shaklida ya'ni vodkast qilib ko'rishi, tahlil qilishi mumkin. Autentik video, podkast, vodkastlar o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga ruhlantiradi, ular dars jarayonida zerikmay har xil turdagi topshiriqlarni bajarib, kommunikativ kompetensiyaning komponentlarini egallab boradi.

Ko'rinadiki, autentik materiallar lingvistik va nutqiy kompetensiyani uyg'unlashtirib qo'llashga va bu orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Muhokama. Tadqiqot ishimiz jarayonida professional ta'limning aniq fanlar yo'nalishida ingliz tili mashg'ulotlarida autentik materiallardan o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining hamma komponentlarini eklektik tarzda ya'ni bir-biridan ajratmagan holda foydalanish samarali natijalar berishini guvohi bo'ldik va ingliz tilida ulardagi o'z fikrlarini namoyon qilishda to'siq bo'ladigan ikki omil: o'ziga ishonchsizlik va muloqot qilishdan qo'rquv hissi bartaraf etildi. Agar o'quvchilar yangi bilimni hayotga bog'lab o'rgansalar 80%, amaliyotda ularni qo'llaganda esa 90% eslab qolishi isbotlandi. Shu jumladan,

autentik materiallar real hayotiy voqealarga asoslanganligi uchun, o'quvchilar tilni egallashda berilgan ko'rsatkichlarga erisha oladi. Bu kabi materiallardan foydalanishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqaridagi vaziyatlardagi muloqot jarayonida tildan unumli foydalanishidir. Ko'rinadiki, autentik materiallar lingvistik va nutqiy kompetensiyani uyg'unlashtirib qo'llashga va bu orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Natijalar. Ingliz tili darslarida autentik manbalardan foydalanish orqali bir qancha afzalliklarga erishiladi:

- autentik materiallar o'quvchilarning talabi va qiziqishlariga qarab tanlanishi; ular yordamida o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlar taqdim etilishi;

- o'quvchilarning hayotiy vaziyatlarda olib boradigan muloqotlaridagi qiyinchiliklar, ikkilanishlarni bartaraf qilinishi;

- darsda, darsdan tashqarida ham ulardan foydalanish imkoniyatining yaratilishi;

- o'quvchilarning ijtimoiy til qobiliyatlarini rivojlantirishi;

- o'qituvchi va o'quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishi; doimo o'quvchilarni o'z istaklari bilan o'qishga ilhomlanishi;

- o'qituvchi turli xil manbalardan foydalanib darslarni rang-barang bo'lishga erishilishi;

- bilim darajasi past bo'lgan o'quvchilar amaliyotda turli xil autentik topshiriqlarni bajarib yuqori natijalarni qo'lga kiritishi;

- ular tashqi dunyo bilan sinfxonada aloqani o'rnatadi, tilni har xil kontekstda tilni qo'llashni o'rganish kabilar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ingliz tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish uchun o'qituvchilar darslarda ingliz muhitini autentik materiallar yordamida yaratishlari hamda o'quvchilarga erkin muloqot qilish imkoniyatlarini berishlari zarur, chunki o'quvchi ingliz tilida o'z his tuyg'ularini teran ifoda eta olishi uchun u bilan muloqotdagi shaxsni yaqin olib, tushunib, erkin muloqot qilsagina o'sha vaziyatda ular orasidagi muloqot muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Professional ta'limda ingliz tili mashg'ulotlarida autentik materiallarni qo'llash o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining hamma komponentlarini eklektik tarzda rivojlantirish orqali ta'lim sifatini yaxshilashda, sinfxonada tashqi dunyo bilan aloqa o'rnatib, o'quvchilarga tabiiy muhitda turli xil hayotiy vaziyatlarga tayanib, mahalliy so'zlovchilar kabi kundalik hayotda, oilalarida, do'stlar davrasida ya'ni tildan muvaffaqiyatli foydalanishga o'rgatishga imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining takomillashishi ularning fikrlarini ifodalash samaradorligi, leksikasining boyligi va til vositalaridan qayerda? qanday qilib? qachon? to'g'ri foydalanishni bilishi, shuningdek, suhbatdoshi bilan muloqot paytida o'z shaxsiy ma'naviy-axloqiy holatini tartibga solish bilan belgilandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi (1998y.), YUNESKO ning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjati (1995y.), CEFR. Learning, teaching, assessment. Language Policy Unit, Strasbaurg. – CEFR.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 28-yanvardagi PF - 60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashritish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ- 4910-son.
4. Axmadaliyeva X.A. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish (akademik litseylar misolida): Diss...ped. f.b.f.d. – Toshkent, O'z.D.J.T.U, 2023. 23 b.
5. Huang J., Tindall E & Nisbet D. Authentic activities and materials for adult ESL learners. Journal of Adult Education. 2011,40(1). 1-10 p. Retrieved from <http://search.proquest.com/docview/1011397882?accountid=12528>.
6. Akhmadaliev Kh.A. The role of authentic materials to develop pupils' communicative competence in English classes at academic lyceums. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2022, Volume 2, Issue 1.5 Pedagogical sciences. 225-234 p.
7. Hussein O.N. The Effect of Using Authentic Materials on Developing Undergraduate EFL Students' Communicative Competence. ResearchGate. 2017. 7 p.
8. Harmer J. How to teach English (An Introduction to the practice of English Language Teaching) – Pearson Education Limited. 2001. 190 p.
9. Berardo S. The use of authentic materials in the teaching of reading. The Reading Matrix. 2006,6(2). 60-69 pp.
10. Crossley S., McCarthy P., Louwse M & McNamara. A linguistic analysis of simplified and authentic texts. The Modern Language Journal. 2007, 91(1). 15-30 pp.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).